



INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidaxmedov Temur

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-3014-6539

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson resurslarini rivojlantirish yo'nalishlari, usullari, bu borada xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, fikrlari o'rganildi. Shu bilan birga, inson resurslarini rivojlantirishda xorij tajribasi tahlil qilindi. Mamlakatimizda inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha muammolar aniqlanib, ularning yechimiga olib boruvchi ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: inson, resurs, kapital, ta'lim, kasb, malaka, ish o'rni, ishsizlik, raqobat, mutaxassis, electron tizim, model, rivojlantirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ

Саидахмедов Темур

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассмотрены направления, методы развития человеческих ресурсов, научно-теоретические взгляды, мнения зарубежных ученых по этому вопросу. При этом был проанализирован зарубежный опыт развития человеческих ресурсов. Выявлены проблемы развития человеческих ресурсов в нашей стране, даны научно обоснованные выводы и предложения, ведущие к их решению.

Ключевые слова: человек, ресурс, капитал, образование, профессия, квалификация, место работы, безработица, конкуренция, специалист, электронная система, модель, разработка.

IMPROVING THE HUMAN RESOURCE DEVELOPMENT SYSTEM

Saidakhmedov Temur

Tashkent State University of Economics

Annotation. In this article, directions, methods of development of human resources, scientific and theoretical views, opinions of foreign scientists were studied. At the same time, foreign experience in the development of Human Resources was analyzed. Problems for the development of human resources in our country were identified and scientifically based conclusions and proposals were made leading to their solution.

Keywords: human, resource, capital, education, profession, qualification, job, unemployment, competition, specialist, electron system, model, development.

Kirish.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston oldiga oliy maqsadlarni qo'yish, ularga erishishning eng samarali yo'llarini izlash va ulardan foydalanish muhimdir. Binobarin, O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, asosan, inson resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq. Inson resurslaridan samarali foydalanish nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon iqtisodiyotining dolzarb muammosidir.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasida ham jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadi qo'yilgan (Farmon, 2022).

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatning asosiy rivojlanish sababi bo'lib inson omilini kuchaytirishga qaratilgan investitsiyalash, ya'ni inson salohiyati taraqqiyoti, aholi ta'lim darajasining oshishi va kadrlarning professional tayyorgarligi hisoblanadi (Xudoyberdiyeva, 2023).

Mamlakatlarning ustuvor iqtisodiy o'sishini ta'minlashning yo'li zamonaviy bosqichda inson resurslarini rivojlantirishning aynan ta'lim sifatini oshirish sohasida topiladi. Shuningdek, ta'kidlash joizki, bugungi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida ta'lim sohasining rivojlanish tendensiyasi o'zgarib bormoqda. Osiyo ta'lim modeliga asosan o'quv jarayoni nazariy bilimlar berishdan olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga, axborot texnologiyalari asosida talabalarda mustaqil ta'lim olish malakalarini shakllantirishga qaratilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini zamonaviy talablar asosida tubdan qayta ko'rib chiqish, raqobatbardosh oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash hamda sohani jahon standartlari darajasida rivojlantirishda oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda (Xudoyberdiyeva, 2023). Bu borada asosiy bilim sohalari bo'yicha elektron ta'lim resurslari milliy tizimini yaratish, jahonning ta'lim resurslariga kirish va bu infrastrukturani takomillashtirish, o'quv jarayonida jahonning va milliy elektron ta'lim resurslaridan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali foydalanish, o'quv yurtlarini moddiy-texnika bazasini va tarmoqli infratuzilmani rivojlantirish muammolari bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Taniqli iqtisodchi olim Shuls (1961) asarida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi, inson kapitaliga investitsiya kiritish, inson kapitalini mehnat bozorida sotish, mehnat salohiyati, inson kapitalining rivojlanish omillari, inson kapitalining rivojlanish darajalari kabi masalalar tadqiq qilingan.

Shuningdek, Bekkerning (1993) asarida ijtimoiy rivojlanish nazariyasining metodologik asoslari, iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyoti, inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi, inson taraqqiyotini baholashning asosiy mezonlari va ularning xususiyatlari, insonni rivojlantirishning asosiy mezonlari, insonni rivojlantirish konsepsiyasi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan.

Genkin (2000), inson resurslarini rivojlantirishni daromad manbai sifatida namoyon bo'luvchi mehnat unumdorligining sifatini aniqlovchi ko'rsatkich sifatida e'tirof etadi. Muallif bunday sifatlarga sog'liqni saqlash, ta'lim, kasbiy mahorat va harakatchanlik xususiyatlarini kiritadi.

Yakimchuk (2015) inson resurslari mazmunini ochib berishda, nafaqat inson tomonidan to'plangan sog'lomlashtirish va ta'lim sohasidagi mablag'lar bilan, balki bevosita kasbiy mahoratning o'sishiga va natijada mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradigan shaxsiy iste'mol jarayoni bilan taqqoslaydi.

Solovova (2019) va boshqalarning fikriga ko'ra, inson resurslarini rivojlantirish juda ko'p ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida mustaqil ilmiy fan sifatida shakllangan hayotiy strategik funksiyadir.

Iqtisodchi olim Abdurahmonov (2019) bu borada "Inson resurslari – mamlakat aholisining foydali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan jismoniy rivojlanish, aqliy qobiliyatlar va bilimga ega bo'lgan qismlar tushuniladi" – deb ta'rif bergan.


Shuningdek, Bakiyeva (2011) "Inson resurslari – bu odamlar, ularning mehnat axloqi va qo'yilgan maqsadga erishish uchun intilishi, ularning bilimlari va qadriyatlar tizimi, ijodiy va novatorlik qobiliyatidir", – deb fikr yuritgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqotimizning maqsadi inson resurslarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab shiqishdan iborat. Maqolada inson resurslarini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining o'rni, yapon modeli o'rganildi. Inson resurslarini rivojlantirish masalalari yoritib berishda, qiyosiy, tarkibiy, analitik va statistik ma'lumotlar tahlilidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ta'lim sifatiga e'tibor bo'yicha Osiyo mamlakatlaridan Xitoy tajribasi e'tiborlidir. Xitoyda katta yoshdagi aholining bor-yo'g'i 15–17 foizi savodsiz hisoblanadi. Agar bu ko'rsatkichni boshqa Osiyo mamlakatlari bilan taqqoslasak Hindistonda – 47%; Bangladeshda – 61%; Pokistonda – 59%; Eronda – 27%; Turkiyada – 17%; Indoneziyada – 15% ni tashkil qiladi (Oripova, 2014).




1-rasm. Mamlakatimizda mehnat resurslari soni⁵³

1-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki mamlakatimizda yildan-yilga mehnat resurslari soni doimiy ortib borishda davom etmoqda. Buning natijasini O'zbekistonda aholining turmush darajasi yaxshilanishi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga mehnat resurslarining ortib borishi kelajakda ish bilan bandlik muammolarni ham keltirib

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy web sahifasi ma'lumotlari <https://siat.stat.uz/reports-filed>

chiqaradi. Aholini ish bilan bandliga ko'maklashish maqsadida davlat dasturlarini ishlab chiqish zaruratini shakllantiradi va albatta natijada inson resurslarini ham zamon talablaridan kelib chiqqan holda rivojlantirishga ehtiyojni tug'diradi. Ba'zi kasblarga ehtiyoj kamayib ishsizlikni keltirib chiqaradi (2-rasm).



2-rasm. Mamlakatimizda ishsizlar soni⁵⁴

2-rasmda ko'rish mumkinki, mehnat resurslariga nisbatan oladigan bo'lsak 2022-yilda ishsizlik darajasi 6,8 %ni tashkil qilmoqda, 2020-yil bilan solishtirganda bo' ko'rsatkich 8,1 %ni ya'ni 1,3 %ga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Demak mamlakatimizda olib borilayotgan aholini ish bilan bandlik natijalari o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Inson resurslari ham malaka, bilim jihatidan rivojlanib bormoqda natijada bandlik darajasi ham ortmoqda. Inson resurslarini samarali rivojlantirishda ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, inson resurslarini rivojlantirish va bandlik masalalarini hal etishda yordam berishi mumkin.


Inson resurslarining shakllanishi va rivojlanishi doimiy, uzluksiz, uzoq muddatli jarayonligini hisobga olgan holda, iqtisodiy o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi innovatsion texnologiyalar bilan bir xil yoki undan ham ko'proq foyda keltiradi. Inson resurslarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-demografik, institutsional, integratsiya, ijtimoiy-ruhiy, ekologik, iqtisodiy, ishlab chiqarish, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillari mavjud.

Shu sababli, inson resurslari milliy, mintaqaviy, tarmoq darajasida, shuningdek, korxonalar va shaxs darajasida tahlil qilinishi zarur. Bunda inson resurslarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha dunyo tajribasini o'rganish asosida tahlil etish muammoni aniqlashda yanada ko'mak beradi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida inson kapitalini shakllantirishda eng asosiy e'tibor ta'lim tizimiga qaratiladi. Inson resurslarining ahamiyati turli xil yondashuvlar asosida baholanadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan esa bu ta'lim olgan kishilarning daromadi darajasiga ko'ra aniqlanadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o'rtacha 10 foizga oshiradi. Bunda ta'lim sifati muhim ahamiyatga ega (Erkayeva, 2023). Mamlakatimizda inson resurslarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim bilan qamrov ham kengaymoqda va ta'lim xizmatlari bozori rivojlanib bormoqda 3-rasm.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy web sahifasi ma'lumotlari <https://siat.stat.uz/reports-filed>



3-rasm. OTMLar bakalavriat ta'lim yo'nalishida har 100 o'ringa qabul qilingan talabalar soni⁵⁵

Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish inson resurslarini rivojlantirishda birinchi amaliy qadam bo'ldi. Davlat va xususiy OTMLar ta'lim xizmatlarini ko'rsatib, aholining savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Inson resurslarini rivojlantirishda, inson resurslarini boshqarish vazifalarini belgilashni talab etadi va unga quyidagilar kiradi (Djurayeva, 2023):

- tashkilotni zarur kadrlar bilan ta'minlash;
- jamoaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish;
- kadrlar uchun qulay mehnat sharoitlarini ta'minlash;
- jamoada ijobiy shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish;
- jamoa barqarorligini mustahkamlash;
- inson resurslarining martaba o'sishi uchun sharoit yaratish.

Shunday qilib, inson resurslarini boshqarish faoliyati tashkilotni yuqori sifatli, samarali va o'z vaqtida kadrlar bilan ta'minlash va zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Inson resurslarini rivojlantirish doimo istalgan xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shu sababdan, inson resurslarini rivojlantirish muammolarini to'g'ri, mantiqiy va aniq hal qilish kadrlar menejmenti asoslarini professional darajada o'zlashtirishni taqozo etadi.


Bu borada Yapon tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, korporatsiyalarda inson resurslarini rivojlantirish yo'nalishlarini uch guruh bilan ifodalash mumkin (Abrosimov, 2012):

1. Inson resurslarini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy jihatlarini davlat tomonidan boshqarishning ijtimoiy mohiyati, uning ichki va xalqaro munosabatlardagi manfaatlari bilan asoslanganligini ochib beradi.

2. Yapon korporatsiyalarida inson resurslarini rivojlantirishning tarkibiy-funksional jihatlarini muayyan xo'jalik bo'g'inida boshqaruv tizimi tarkibini, uning maqsadli vazifalarini va real faoliyat jarayonida faoliyat yuritish tartibini belgilab beradi.

3. Rahbarning boshqaruv faoliyatini takomillashtirish ushbu faoliyat tavsifini aniqlab beradi. Normativ hujjatlar va uslubiy tavsiyalarda yapon korporatsiyalari inson resurslarini rivojlantirish jihatlarining ushbu guruhi, odatda, boshqaruv faoliyatining quyidagi jihatlarini bilan ifodalanadi: boshqaruv faoliyatini huquqiy tartibga solish; shaxsiy faoliyatga yondashuv; faoliyat natijalariga ta'sirning aniqligi; boshqaruv faoliyatining motivatsiyalash va rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy web sahifasi ma'lumotlari <https://siat.stat.uz/reports-filed>



4-rasm. Mehnat bozorida inson resurslarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar⁵⁶

Professional mehnat sohasida muvaffaqiyatga erishish inson resurslarini rivojlantirish faoliyatida turli xildagi vazifalarni hal qilish natijalari bilan belgilanadi. Bu yerda ehtimoliy muammoli vaziyat yuzaga kelishining eng muhim tarkibiy qismini topishi lozim. Inson

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy web sahifasi ma'lumotlari <https://siat.stat.uz/reports-filed>

resurslarini rivojlantirish modelini tuzish sohasida muammoni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf qilish xo'jalik yurituvchi subyekt raqobatbardoshligini oshirishning ichki vazifasi deb hisoblanishi mumkin (Akbarov, 2019). Ushbu vazifani hal etish boshqaruv faoliyatini optimallashtirish mohiyatini ifodalaydi.

Shu bilan birga inson resurslarini rivojlantirishda to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan holatlarni ham inobatga olgan maqsadga muvofiq bo'lar edi (4-rasm).

Mehnat bozorida 4-rasmda aks ettirilgan xavf-xatarlarni oldini olish orqali inson resurslarini rivojlantirish borasida yuzaga keladigan muammolarga yechim topish mumkin. Keltirilgan xavf-xatarlarni bartaraf etish orqali, inson resurslarining o'z-o'zini rivojlantirish jarayoniga yo'l ochilgan bo'lardi.

Xulosa va takliflar.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda har qanday texnik-texnologik, innovatsion o'zgarishlar bilim, tajriba va tegishli ko'nikmalarni o'z ichiga olgan inson resurslarini rivojlantirish asosida quriladi. Inson resurslarining rivojlanishi boshqa tizimlar singari mavjud innovatsion salohiyatning asosiy tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning innovatsion rivojlanish yo'nalishini belgilaydi.

Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish innovatsiyalar shaklida namoyon bo'luvchi ilmiy g'oyalarni ishlab chiqarish vazifasini bajaradi. Inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni faollashtiradi hamda rivojlanishga o'z hissasini qo'shadi.

Inson resurslarining murakkab tarkibiga qaramay, uni shakllantirish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy konsepsiya evolyutsiyasi davomida rivojlantirish jarayoni ta'lim komponentlarining ahamiyatini belgilaydi. Aynan bilim va ko'nikmalar inson resurslarini rivojlantirishning asosini tashkil etadi, uni tashuvchisining mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va daromadga ega bo'lish darajasini belgilaydi.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:

Abdurahmonov Q.X. (2019) *Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik.* – T.: Mehnat nashriyoti, -204 b.

Akbarov Axral Maxmudovich, Shakirova Nigora Axralovna (2019) *Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish modeli (Yaponiya tajribasi misolida) "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel.*

Bakieva I.A. (2011) *"Inson resurslari iqtisodiyoti" fani (o'quv qo'llanma).* – T.: TDIU, -17 b.

Bekker G. (1993) *Inson kapitali (kitobning boblari). Inson kapitaliga investitsiyalar tushumiga ta'siri. AQSh: Iqtisodiyot, siyosat, mafkura, - № 11.*

Djuraeva, G. (2023). *Zamonaviy korxonalarda inson resurslarini boshqarishning muammolari. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(3), 223–228.*

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a34

Erkaeva G.P. (2023) *"Inson kapitalini rivojlantirishning xorijiy tajribalari".* <https://conference.tsue.uz/index.php/article/article/download/321/30>

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 01.02.2022*

Oripova Z.D. (2014) *Xitoyda inson kapitaliga investitsiyalarni yo'naltirish// zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie, №6,3-8 b.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy web sahifasi ma'lumotlari <https://siat.stat.uz/reports-filed>

Schultz, T. W. (1961) *Investment in Human Capital / T.W. Schultz // The American Economic Review. Vol. 51. Pp. 1–17*

Xudoyberdieva G. (2023) Ta'lim tizimida inson resurslarini boshqarishning o'ziga xos jihatlari // SAI. №Special Issue 13. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-tizimida-inson-resurslarini-bosh-arishning-ziga-hos-zhi-atlari>.

Абросимов Н.В. (2012) Зарубежный опыт инновационного развития кадрового потенциала организации // Вестник Московского университета имени С.Ю. Витте. Серия I. Экономика и управление, - №1. – С.46.

Генкин Б.М. (2000) Экономика и социология труда: учеб. для студ. вузов / 2-е изд., испр. и доп. –М.: НОРМА; ИНФРА-М, - 400 с.

Соловова Н.В., Гагаринская Г.П., Калмыкова О.Ю., Васяйчева В.А., Новоселова О.В. (2019) Управление человеческими ресурсами: учеб. пособие / Н.В. Соловова [и др.]. – Самара: Изд-во Самарского университета, – 3 с.

Якимчук С.В. (2015) Развитие человеческого капитала: региональный аспект // Економічний часопис-XXI. №1-2(1). - С. 20-23